



1991-yildan
chiqa boshlagan.

2017-yil. 4-son.

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz

Amir Temur tavalludining 681 yilligi



Amir Temur. Rassom Malik Nabiyeu

USHBU SONDA



Amir Temur
tavalludining
681 yilligi

Amir Temur
ma'naviy merosi

3-bet



Trener
mashg'ulotlari

Writing task 2:
task and requirements

22-bet



Adabiy
taqvim

Hikoyachilikda
maktab yaratgan adib

33-bet



Актуальное
слово дня

Эффективное использование
мировой практики
и инноваций при обучении
лингвистическим
основам языка

стр. 49



Авторское
слово

Г.Х.Андерсен
«Дюймовочка»

стр. 53

Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin!



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2017-yil. 4-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor DONIYOROV
Mamatqul JO'RAYEV
Shahnoza JO'RAYEVA
Islom ZOKIROV
Ulug'bek INOYATOV
Abduhamid MUXTOROV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nizomiddin MAHMUDOV
Abdurahim NOSIROV
Nargiza RAHMONQULOVA
Hikmatilla RASHIDOV
Sirojiddin SAYYID
Ergash UMAROV

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Lutfullo JO'RAYEV
Ehson TURDIQULOV
Valijon QODIROV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:

N.NAMOZOVA
N.USMONOV

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Telefon: (0 371) 244-04-18,
244-04-15, 244-20-63, 244-26-89.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarga mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 06.04.2017-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garnituras. 10, 11 kegl. «O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Navoiy ko'chasi, 30.
Buyurtma №17-175 Adadi 13013
nuxsa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

AMIR TEMUR TAVALLUDINING 681 YILLIGI

D.Yo'ldosheva. Amir Temur ma'naviy merosi..... 3

DARS MUQADDAS

Xurshida Nishonova. «Gulim ko'rkam», — der bahor! 5

Dildora Turdiyeva. «Ko'ngli tilagan murosidda yetsa kishi...» 8

Adiba Bekchanova. «Poylaringga sadqa bu jonim» 10

Donoxon Usmonova, Jamoliddin Nurmuhammadov. Xalq og'zaki ijodi — tarbiya vositasi 13

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Tal'at G'afforova. O'qituvchining kasbiy kompetentligi — bugungi kun talabi 15

Ra'no Xodjiyeva. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuv 17

Nargiza Yulanova. Yaxshi bilsang ishingni 18

Nazokat Jiyanova. «O'tkan kunlar»dagi «charxpalak» 20

TRENER MASHG'ULOTLARI

Nilufar Begibayeva. Writing task 2: types and requirements 22

TEACHING ENGLISH

Enquiries 26

Request 27

METODIK TAVSIYA

Umida Usmonova. Alternative assessment types for primary classes 28

Madina Nazarova. Context and polysemy 29

TADBIR SSENARIYSI

Muhayyo Karimova, Dilafuz Bobojonova. Baxtim shul — o'zbekning Zulfiyasiman! 31

ADABIY TAQVIM

Shoira Normatova. Hikoyachilikda maktab yaratgan adib 33

TAHLIL

Manzar Abdulxayrov. «Hashr bozorida beqiyamatdurur...» 36

Bashorat Jamilova. Bolalikni suymagan kim bor? 38

Shodmonqul Salom. «Visol qushlari» sayri 40

TADQIQOTLAR

Baxtiyor Abdushukurov. «Qisasi Rabg'uziy» asaridagi paremlar 42

Shahnoza Rahimova. Ingliz tili idiomalarini o'zbek tiliga o'girishda 44

stilistika va semasiologiya masalalari 44

QO'SHIMCHA MATERIAL

Go'zal Isakova. Ta'lim jarayonida maqollardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari 46

Rajabgul Egamova. Komil inson — ajdodlar orzusi 48

АКТУАЛЬНОЕ СЛОВО ДНЯ

Бахтиёр Данияров. Эффективное использование мировой практики и инноваций 49

при обучении лингвистическим основам языка 49

Шахноза Халсаидова. Проблемы языка в эпоху глобализации 52

АВТОРСКОЕ СЛОВО

Юлия Мусурманова. Г.Х.Андерсен «Дюймовочка» 53

МЕТОДИКА. ОПЫТ

Махмуджон Рахимов. Путешествие по Стране повторения 57

Дилором Абдуллаева. Хлеб — всему голова 59

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Феруза Саидова. Научить школьников уменью учиться как педагогическая проблема 61

и один из важнейших приоритетов XXI века 61

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Гузеля Нигматуллина. Лингвокультурная компетенция как основа формирования 63

системы переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров 63

Феруза Муратходжаева. Значение слов и словосочетаний, их применение 64

при переводе с английского языка на узбекский 64

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ЗАМЕТКИ

Эльвина Алиева. Окказионализмы в современных анимационных фильмах 66

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

Беккенбауэр Реимов, Айшолпан Ниязова. Несколько приемов работы 68

с английскими фразеологизмами 68

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Анаркул Калдыбекова. Профессиональное развитие преподавателя как цель деятельности 71

системы переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров 71

Мукаррама Бердиева. Особенности создания текста 73

Гулором Тулабоева. Формирование умений конструктивного диалога 75

при изучении иностранного языка 75

ЗАРУБЕЖНАЯ ЛИТЕРАТУРА

Юлия Матенова. Перекрестки эпох во французской литературе 77

ХРОНИКА

Мадина Билалова. Открытие Центра русского языка 80

TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI

ЯЗЫКОВАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ ИЛИ
LANGUAGE AND LITERATURE

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA va PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.



Manzar ABDULXAYROV,
tadqiqotchi

“HASHR BOZORIDA BEQIYMATDURUR...”

Haqiqiy jasoratning alomatlaridan biri kishi el so'zi-ni tinglashi, ya'ni uning so'ziga nopisand bo'lmashligi bo'lsa, ikkinchisi inson o'z nafsini yengishidir. Bunday xususiyat xalqning chinakam botirlari qalbida mujassam bo'ladi. Chunki el ko'ngli – Tangrining nazargohi. Ulug' shoir Alisher Navoiy g'azallaridan birida kishidagi shijoat, bilim va tuyg'u ham amaliy, ham tabiiylik kasb etishi joiz, deb hisoblaydi. Ba'zan oq qog'oz shundayligicha durustdir, bu nojoiz narsalarni ko'rmagan, bilmagan kishi tiynati oppoq qog'oz misoli pok va go'zal tuyg'ular sohibi bo'lgani kabi. Bilim ham shunday. Chunki inson undan turli xil maqsadlarda foydalanadi, biroq u bilan hamma narsaga erishib bo'lmaydi... Bunday hol shoirning ushbu g'azalida o'z aksini topgan:

*Istasangkim urg'asen davrong'a tiyg'i inqito',
Ul vido' etkuncha sen qilg'il burunrog' alvido'.*

*Jon berib shirin-u muhlik joh uchun ilgingda tiyg',
Naz' vaqti sharbati marg istab aylaysen nizo'.*

*Asrading katton kafan qilmoq uchun, ne sudkim
Hashr bozorida beqiymatdurur mundoq mato'.*

*Maskaning oxir chu tufrog'dur, ne o'tkarmakdurur
Madfaning ayvonig'a ko'k gunbazidin irtifo'.*

*Sandaloyin ev yasab, eldin ko'rarsen sarzanish,
Kim, bu yanglig' ko'rdi sandalniki, yetkurgay sudo'.*

*Yer o'parsen rizq uchun minnat yukidin xam bo'lub,
Tengri yoringkim, qilibsen xush namoze ixtiro'.*

*Dur qulog'ingda momuqdin bir chigitdur, el so'zin
Bu momuq birla chigitdin aylamassen istimo'.*

*Besha sherin gar zabun qilsang shijoatdin emas,
Nafs itin qilsang zabun olamda yo'q sendek shujo'.*

*Ey Navoiy, Tengri asrorig'a til mahram emas,
Chok ko'nglung ichra tutkim «jovaz-al-isnayni sho'».*
(«G'aroyib us-sig'ar», 288-g'azal)

G'azalda yuksak g'oyalar va betakror botiniy tuyg'ular mujassam. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchiga Sharq she'riyatiga xos insoniylikning nechog'liq ruhiy maqomda ekanligini yanada chuqurroq anglatishdan iborat. Zotan, inson inon-ixtiyori tizgini aslida qazo qo'lidadir. Ya'ni inson uchun bu dunyo sinovdir. Bas, shunday ekan, inson o'z-o'zini aldab, riyokorlik yo'lga kirmashligi joiz. Undagi chin xislat, fazilatlarining siri insoniylik shevasining qanday tahqiq qilinishi bilan ochiladi.

Endi baytlar sharhiga o'taylik.

*Istasangkim urg'asen davrong'a tiyg'i inqito',
Ul vido' etkuncha sen qilg'il burunrog' alvido'.*

Dastlab ushbu matla'dagi eng xarakterli so'zga e'tiborni qarataylik. Bu – arabcha *inqito'* so'zi. Bu so'z Alisher Navoiy asarlarida «kesish», «uzilish», «tugash»; «to'xtab qolish» singari ma'nolarda qo'llaniladi. Bundan tashqari, mumtoz adabiyotda bu so'z «tanholik», «judolik», «odamlardan uzoqda, ya'ni uzlatda yashash» ma'nosida ham keladi. Ayni ma'noda matla'ning qisqacha mazmuni quyidagicha: ey inson, agar sen astoydil istasang, davrondan butunlay uzilishing mumkin, holbuki, sen buni istamasang ham bir kun kelib u sen bilan xayr-ma'zur qilishi tayin. Shuning uchun sen undan burunroq u bilan vidolashib qo'ya qol! Aniqrog'i, shoir bunda dunyo bilan botinan xayrlashishni nazarda tutgan. Bu tavr, ya'ni buni ertaroq anglash, aslida esa Tangrining sevgan qullariga berilgan ilohiy in'om.

*Jon berib shirin-u muhlik joh uchun ilgingda tiyg',
Naz' vaqti sharbati marg istab aylaysen nizo'.*

Baytning qisqacha mazmuni: aslida inson uchun eng xatarli bo'lgan dunyo moli uchun qo'lingga tig' olib shirin joningni ham berishga tayyorsan, xuddiki, bu holat o'layotgan insonning momiq paxta bilan og'ziga tomdirilayotgan o'lim sharbatiga tipirchilab intilishiga o'xshab ketadi.

*Asrading katton kafan qilmoq uchun, ne sudkim
Hashr bozorida beqiymatdurur mundoq mato'.*

Bunda shunday badiiy tafakkur ilgari suriladi: jasad uchun yillar kanopdan to'qilgan eng qimmat matoni asrab kelding. Senga bundan qanday foyda bo'lishi mumkin? Agar bilsang, qiyomat kunida bo'ladigan bozorda bu matoyingning zig'ircha qiymati yo'q. Ya'ni u sariq chaqaga ham arzimaydi. Chunki shoir nazdida inson zohiriy ko'rinishlarga mahliyo bo'lib, xudnamolikka tutishi bu – chinakam botiniy g'afatdir. Agar Navoiyning bu fikrlari yanada soddaroq talqin qilinsa, o'z-o'zidan shunday jo'n savol tug'iladi. Xo'sh, hashr bozorida aslida nima qiymatga ega? Avvalo, insondagi riyosiz barcha botiniy amallar. Xususan, u kishilarga qilgan mehr-u muruvvatini mutlaq esdan chiqarishi. Bunda o'zini mudom gunohkor deb bilishi joizdir. Keyingi baytlardagi tashbehlar ana shu badiiy tafakkurni to'ldirishga xizmat qiladi.

*Maskaning oxir chu tufrog'dur, ne o'tkarmakdurur
Madfaning ayvonig'a ko'k gunbazidin irtifo'.*

Baytning muxtasar ma'nosi: ey inson, oxir so'nggi manziling tuproq bo'ladi. Shunday ekan, nima uchun qabring boshiga ko'k gumbaziday baland ayvon ko'tarasan? Zero, bularning bari aslida nokerak narsa-

lardir. Ortiqcha dabdaba riyokorlikka yo'l ochadi va bu holat kishi ruhiyati siniqishiga olib keladi. Bu yerda ulug' shoirning muhim ijtimoiy qarashi jo etilganligini ko'ramiz.

*Sandaloyn ev yasab, eldin ko'rarsen sarzanish
Kim, bu yanglig' ko'rdi sandalniki, yetkurgay sudo'.*

XIV–XV asrlarda sandal daraxti yuqori qiymatga ega bo'lgan. Undan faqat sarvatmand odamlar uy bino qilishgan. Ayni ma'noda bayt mazmuni quyidagicha: ey inson, xush isli, ya'ni sandal daraxtidan uy bino qilib, xalqdan dashnom eshitasan, zero, hozirning o'zida buning oqibatini ko'rayapsan. U bosh og'rig'idan boshqa narsa emas.

*Yer o'parsen rizq uchun minnat yukidin xam bo'lub,
Tengri yoringkim, qilibsen xush namoze itxiro'.*

Ulug' shoir yuqorida keltirilgan badiiy kayfiyatdagi mavhumlikni endi ushbu baytda yanada aniqroq davom ettiradi: minnatdan kelgan rizq uchun, ya'ni uning jon bahosini qadrlash uchun ikki bukilib go'yo yer o'pasan, xuddiki, pinhona Tangri bilan do'stlashish maqsadida namoz o'qiganing kabi. Lekin bu o'rinda yana bir sirli ishora bor. Zero, shoir fikricha, kishidagi imon, e'tiqod-talablik birgina islomning farz, sunnat yoki diniy aqoidlarini ado etish bilan amalga oshib qolmaydi. U juda keng tushuncha... Darhaqiqat, Hazratning iymonga nisbatan keng qarash va asriy da'vatlari keyinchalik ham o'z ifodasini topdi. Odamiyat buni turli ko'rinishlarda bo'lsa-da, anglab yetdi: «lymon – faqat muayyan diniy ta'limotlarning mahriga tushgan favqulodda boylik emas. Eng yaxshi imon – bo'lib o'tgan, hozir mavjud va endi bo'ladigan narsalarning hammasida Kamolotga intiluvchi bir iroda mujassam ekaniga qat'iy ishonch. Kim-da-kim shu e'tiqodga ega bo'lsa, u mukammallashish jarayonida ishtirok etadi» (Jon Golsuorsi). Eng muhimi, bunda inson botiniy xotirjamlik va rostlikka erishadi...

*Dur qulog'ingda momuqdin bir chigitdur, el so'zin
Bu momuq birla chigitdin aylamassen istimo'.*

Bu baytda go'yo g'azal maqta'sidagi umumlashtiruvchi badiiy tafakkurga, aniqrog'i, «jovaz-al-isnayni sho'» iborasining ma'nosiga ramz qilinadi. Ya'ni qulog'ingga bir chigitday, ya'ni injudek momiq paxta tiqilgan. Axir shu momiq paxta bilan chigit tufayli xalqning ma'noli so'zlarini eshitmay qolasan-ku!

Navoiy ijodida nafs tarbiyasiga ham zohiriy, ham botiniy jihatdan juda keng o'rin berilgan. Eng muhimi, buni ulug' shoirning o'zi amalda boshidan o'tkazadi va so'ngra tilga keltiradi. Masalan:

*Qut bir bodom-u yerim go'shayi mehrob edi,
G'orati din etti nogah bir balolig' ko'z-u qosh.*

Baytda qo'llangan «bodom», «go'shai mehrob» – poetik timsol, sufiyona ramz. Bodom – qanoatning zayli, poklik. Zotan, tasavvufning tub mohiyati ham sabr, qanoat, poklikdir. Go'shai mehrob – xoli joy, mehrob burchagi, masjidda imom turadigan tepasi qayrilma eng muqaddas joy. Shuningdek, «go'shai mehrob» (yorning qayrilma qoshi) majoziy ma'noda oshiq ko'ngilning maskani – pok ishq, ilohiy muhabbat. Eng muhimi, bu poetik timsolni qo'llash ulug' bobomizning «Orazin yopg'ach ko'zumdin sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh» degan eng mashhur g'azalidan boshlanadi. Uning bardavomligi Navoiy ijodiyoti silsilalari osha yanada yaqqol namoyon bo'la boradi:

Ko'zung fikri bila tan xilvatida notavon

ko'nglum,

Riyozat aynidindur kunda bir bodom ila

gone'.

Baytda ishlatilgan «notavon ko'ngul», «riyozat ayni» va «bodom» – tasavvufiy ramzlarga ishora. Notavon ko'ngul – notinch, betoqat; bechora ko'ngil; doimo yor vasliga mushtaq bo'lgan ko'ngil. Riyozat ayni – riyozat nazari, ishq tufayli chekilgan riyozat. Bodom – qanoat timsoli. Bodom nafaqat Navoiyning nazmiyotida, balki nasriy asarlarida ham juda ko'p marotaba takror-takror riyozat, poklik, halollik, qanoat kabi irfoniy ramzlarda qo'llanilgan: «Va ul (Shayx Alouddin Xorazmiy q.s.), bodom mag'izlaridin manga berur erdi va men yer edim. Va ul yemadi, bir mag'izdin o'zga yo ikkidin o'zga». Shuningdek, Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarida bir qator abdol, shayxlarning komillik darajalari, riyozatlari bodom timsolida juda teran ifodalangan. Yuqorida qayd etilganidek, she'riy obrazda shoirning ruhiy va g'oyaviy qudrati o'z aksini topgan bo'ladi. Eng qizig'i, bu bilan ulug' shoir kunni bir dona bodom iste'mol qilish bilan o'tkazdim, demoqdalar. Chunki shoir fikricha, o'tmishda nafs haqida yuzlab kitoblar mujallad qilingan. Ammo u amali bilan bo'lmasa befoyda, ya'ni quruq cho'pchak bo'lib qolaveradi. Zero, nafsqa berilmaslik shoir ijodiyoti ma'no miqyosining amaliy intihosini belgilaydi:

*Besha sherin gar zabun qilsang shijoatdin emas,
Nafs itin qilsang zabun olamda yo'q sendek shujo'.*

Baytning qisqa mazmuni: bahodirlik bu o'rmondagi sherni yengish degani emas, balki o'z nafsingni mag'lub qilish degani namoyon bo'ladi. Ana shundagina bu olamda senga yetadigan jasoratli pahlavon topilmay qoladi va bunga zinhor ajablana ko'rma!

*Ey Navoiy, Tengri asrorig'a til mahram emas,
Chok ko'nglung ichra tutkim «jovaz-al-isnayni sho'».*

Maqta'ning muxtasar mazmuni: ey Navoiy, Tangri sirlariga kishining tiligina sirdosh bo'la olmaydi. Agar buni astoydil istasang, eng avvalo, ko'ngilga g'amni sirdosh tut! Shundagina botirlikning har ikki belgisi ham senda namoyon bo'ladi... Navoiy ushbu tashbeh misolida kishidagi shijoat, botirlik xislatlari aslida botiniy hodaligini nazarda tutmoqda.

Xullas, g'azal zohiran ko'ngil ko'zining ochilishi, botinan esa oriflik tarzini anglash yo'lida qiyosiylikni o'zida jo etgan badiiy tafakkur mahsuli sifatida Hazrat she'riyatida muhim o'rin tutadi. Bu g'azal o'zbek milliy poetik tafakkur tarzida yangicha bir tavr uyg'otadi, kishi ko'nglida esa insoniylik shevasini paydo qiladi.